

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2026-yil “1” aprel dagi
513sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”
Boshqaruv raisi v.b



O. Butayev
(ro'yxat raqami VI-20/483,
2026-yil “8” aprel)

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida korrupsiyaga qarshi
kurashish tizimining holati to'g'risida hisobot berish, hisobotlarni
tasdiqlash va oshkor qilish tartibi to'g'risidagi Nizom
(yangi tahrirda)

Toshkent – 2026

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi (KQKT) — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki hujjatlariga muvofiq korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, xodimlarning yuqori darajadagi kasbiy va axloqiy faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

xodim – bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs.

2-bob. Nizom maqsadi

4. Mazkur Nizomning maqsadi bankning korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi samarali faoliyat yuritishi va uni yanada takomillashtirilishini ta'minlash maqsadida hisobotni shakllantirishning asosiy tamoyillari hamda tartibini belgilashdan iborat.

5. Hisobot bankning korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi holatini monitoring va nazorat qilish, korruptsiyaga qarshi harakatlar rejasining ijrosini baholash, shuningdek bank va uning hududiy boshqarmalari, BXO/BXMLlarda korruptsiya xavfini minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni samaradorligini ta'minlash maqsadida tuziladi.

6. KQND korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va uni Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolariga taqdim etish uchun mas'ul hisoblanadi.

7. KQND bankda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni talablariga rioya etilishi holati bo'yicha har yili hisobot tayyorlaydi hamda ushbu hisobotlarning bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlaydi.

8. KQND korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi yoki korruptsiya holatlari bilan bog'liq har qanday masala va jarayonlarni eng yuqori darajada ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelganda, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolariga bevosita va tezkor murojaat qilish huquqiga ega bo'lishi lozim.

3-bob. Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to'g'risida hisobot

9. Korruptsiyaga qarshi kurash choralari rioya etilishi yuzasidan monitoring va nazorat qilish natijalari to'g'risidagi hisobot KQND rahbari tomonidan har chorak yakuni bo'yicha, hisobot choragidan keyingi birinchi oyning dastlabki o'n kunligi ichida tayyorlanadi hamda ko'rib chiqish uchun bank Boshqaruvi va Kuzatuv kengashi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etiladi.

10. Zarurat tug'ilganda KQND rahbari bank Boshqaruvi, Kuzatuv kengashi yoki davlat organlarining talabiga binoan korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha qo'shimcha hisobotlarni ham shakllantiradi. Bunda axborotni

oshkor qilish hajmi va tartibi KQND rahbari tomonidan KQND faoliyatini nazorat qiluvchi Boshqaruv raisining o'rinbosari bilan kelishilgan holda belgilanadi.

11. Hisobotlarni shakllantirish va yangilash jarayonida bank quyidagilarni ta'minlashi lozim:

identifikatsiya qilish – hujjatni aniqlashtirish va tavsiflash (masalan, nomi, sana, raqami);

formati – hujjatning shakli va tili (masalan, tili);

tarqatuvchi – hujjatni yetkazish tartibi (masalan, qog'oz orqali, elektron);

foydalilik va adekvatlik – ma'lumotlarning dolzarbligi, to'liqligi hamda ularning muvofiqligini tahlil qilish va tasdiqlash.

12. Hisobot, shuningdek boshqa hujjatlashtirilgan axborotlar, quyidagilarni ta'minlash maqsadida boshqarilishi lozim:

mavjudlik va muvofiqlik – zarur paytda foydalanish imkoniyati hamda amaldagi talablarga mosligi;

yeterli darajada himoyalanganlik – maxfiylikning buzilishidan, noto'g'ri foydalanishdan hamda axborot yaxlitligining yo'qolishidan himoya qilinishini ta'minlash.

13. Hisobot va boshqa hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni boshqarishda quyidagilar nazarda tutilishi lozim:

tarqatish, kirish huquqini ta'minlash, izlash va foydalanish tartibi – hujjatlardan foydalanish imkoniyati va shartlarini aniq belgilash;

o'zgarishlarni boshqarish – kiritilgan o'zgartirishlarni qayd etish, ularni tasdiqlash va yangilangan tahrirlarni nazorat qilish;

saqlash muddatlariga rioya etish va yo'q qilish tartibi – hujjatlarni belgilangan muddat davomida saqlash hamda amaldagi tartibga muvofiq yo'q qilishni ta'minlash.

4-bob. Tahlil

14. Bank Boshqaruvi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining doimiy muvofiqligi, yetarliligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida ushbu tizimni muntazam ravishda tahlil qilib borishi lozim.

15. Rahbariyat tomonidan o'tkaziladigan tahlil quyidagilarni ko'rib chiqishni o'z ichiga olishi kerak:

oldingi tahlillar bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning bajarilish holati;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillardagi o'zgarishlar;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyatining quyidagi ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlar:

a) aniqlangan kamchiliklar va amalga oshirilgan tuzatish choralar;

b) monitoring va audit tekshiruvlar natijalari;

- d) poraxo'rlik holatlari to'g'risida berilgan xabarlar;
 - e) o'tkazilgan rasmiy tekshiruvlar natijalari;
 - f) bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya xatarlarining tabiati va darajasi;
- korrupsiya xatarlariga nisbatan ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatlari.

16. Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshirilgan tahlil natijalari bo'yicha Kuzatuv kengashiga hisobot taqdim etiladi.

17. KQND tomonidan bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga taqdim etilgan hisobotlar, shunindek so'ralgan yoki olingan boshqa ma'lumotlar asosida har yili korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini tahlil qiladi.

18. Bank yakuniy hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni Boshqaruv va Kuzatuv kengashi tomonidan tahlil natijalarining dalili sifatida saqlaydi.

5-bob. Tashqi aloqa vositalari

19. Bank ichki qoidalariga muvofiq o'zining korrupsiyaga qarshi faoliyati haqidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi.

20. Axborotni joylashtirish hajmi va tartibi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

aniqlik va ochiqlik - hisobot dolzarb, haqiqiy, taqqoslanadigan, buzilmagan, idrok etish uchun eng qulay shaklda taqdim etilishi, bankning korrupsiyaga qarshi faoliyati bilan bog'liq jarayonlar, hodisalar, faktlar, sharoitlar, holatlarning haqiqiy iqtisodiy mazmunini baholashga imkon beradigan bo'lishi kerak;

to'liqlik - axborot muhim va yetarli bo'lishi kerak;

kirishga ruxsat etilganlik - hisobotlarni joylashtirish minimal zarur kuch, mablag' va vaqt bilan oshkor qilingan ma'lumotlarga erkin, oddiy va qulay kirishni ta'minlashi kerak;

o'z vaqtida va muntazamlik - hisobot qonunchilik va ichki qoidalar talablariga muvofiq o'z muddatida va vaqti-vaqti bilan oshkor qilinishi kerak;

bank siri va axborotning maxfiyligini saqlash – bank, uning mijozlari va kontragentlarining bank, tijorat va boshqa qonun bilan muhofaza qilinadigan sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor etilmaydi, bunday ma'lumotlar qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etilgan hollar bundan mustasno.

6-bob. Yakuniy qoidalar

21. KQND hisobot berish tartibining muvofiqligi, yetarliligi va samaradorligini doimiy ravishda yaxshilab boradi.

22. Mazkur Nizom bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanib va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

23. Mazkur Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, o'z kuchini yo'qotgan deb topish bank Boshqaruvi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

24. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Nizomda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.


25. Mazkur Nizom shartlari buzilgan taqdirda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

26. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

27. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan bank Boshqaruvining 2023-yil 15-avgustdagi 114-3-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risida hisobot berish, hisobotlarni tasdiqlash va oshkor qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom o'z kuchini yo'qotadi.

Shimmi

Shimmi



«OFIL»